

### PREDMETLARNING JOYLASHGAN O'RNIGA KO'RA QIYMAT IFODALOVCHI NUMERATIVLARNING IFODALANISHI

Noila Achilova Hamroqulovna

*Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, Qorako'l tuman ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada numerativlarning ma'noviy guruhlaridan biri sanalmish predmetlarning joylashgan o'rniga ko'ra qiymat ifodalovchi turlari lingvistik nuqtayi nazardan tahlilga tortildi. Aytish lozimki, ushbu turdagi numerativlar tanlangan so'zlarning miqdor o'lchovini qiymatlash uchun qo'llanadi. Ularning til tadqiqi tanlangan mavzuning ilmiy asosini dalillash hamda ifodaviy ko'lamini aks ettirish uchun foydalaniladi.

**Kalit so'zlar:** predmet, joylashgan o'rin, qiymatlash, numerativlar, ifoda, til xususiyati, ilmiy tadqiq.

**Abstract:** In this article, one of the semantic groups of numeratives, the types that express value based on the location of enumerated objects, was analyzed from a linguistic point of view. It should be said that numerators of this type are used to evaluate the quantity measure of the selected words. Their language research is used to demonstrate the scientific basis of the chosen topic and to reflect the expressive scope.

**Keywords:** subject, location, valuation, numerals, expression, language feature, scientific research.

**Аннотация:** В данной статье одна из семантических групп нумеративов — типы, выражающие значение в зависимости от расположения перечисляемых объектов, — была проанализирована с лингвистической точки зрения. Следует сказать, что нумераторы этого типа используются для оценки количественной меры выбранных слов. Их языковое исследование используется для демонстрации научной основы выбранной темы и для отражения экспрессивной сферы.

**Ключевые слова:** предмет, расположение, оценка, числительные, выражение, языковая особенность, научное исследование.

Numerativlar hisob so'zlarning ikkinchi nomi sanalib, ular son so'z turkumi uchun xoslangan lingvistik shakldir. Hisob so'zlarning tilimizda qo'llanishi o'lchov birliklarining ilmiy qiymatini til nuqtayi nazaridan baholashda namoyon bo'ladi. Bizning ushbu maqolamiz ham bevosita numerativlar bilan aloqador sanalib, ularning ma'noviy guruhlaridan biri hisoblangan predmetlarning joylashgan o'rniga ko'ra qiymat ifodalovchi turlari ilmiy ishimizning asosini tashkil etadi.

Hisob so'zlar turli ma'noviy shakllardan iborat bo'lib, ulardan biri predmetlarning joylashgan o'rniga ko'ra aks etishiga binoan tasniflanadi. Ushbu turga binoan jismlarning tanlab olingan predmetga joylashuv sig'imi asos vazifasini bajaradi. Unga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin: cho'mich, mesh, ko'za, qumg'on, choynak va hokazo. Bundan tashqari, o'rinishayotgan predmetning ham o'lchov sig'imi muhim ahamiyat kasb etadi: suv, yog', sut, qum va shu kabi

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

suyuqlik va predmetlarning o‘lchov sig‘imi qiymatlashni amalga oshirishda foydalaniladi. Bundan kelib chiqadiki, ushbu turdagi hisob so‘zlari boshqa guruh hisob so‘zlari bilan bevosita aloqadorlik hosil qiladi. Jumladan, suyuqlik o‘lchovini anglatuvchi numerativlar ham predmetlarning joylashgan o‘rniga ko‘ra qiymatni aks ettiruvchi so‘zlarga daxldor: suvning egallagan hajmini aniqlash uchun uning miqdorini o‘lchash uchun ishlatiladigan litr o‘lchov birligi asos vazifasini bajaradi[1].

Predmetlarning joylashgan o‘rniga ko‘ra qiymat ifodalovchi numerativlarning jumla tarkibida o‘rinlashuvi boshqa numerativlar kabi umumiylik hosil qiladi, ya'ni ular ham o‘lchanadigan miqdor oldidan ishlatiladi:

*Bir stakan suv*

*Ikki qoshiq un*

Ularning yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, ular nisbat berilayotgan so‘zsiz ham ishlatilishi, to‘liqsiz gap hosil qilishda foydalanilishi mumkin[4]:

*Necha stakan un kerak?*

*- Ikki stakan.*

Keltirilgan misoldagi ikki stakan butunligi miqdor nisbat berilayotgan leksik birliksiz ham ishlatilib, takror ishlatilishining oldi olinmoqda. Predmetlarning joylashgan o‘rniga ko‘ra qiymat ifodalovchi numerativlarning yana bir lingvistik xususiyatlari ular ot so‘z turkumini hosil bo‘lishida ham muhimdir, bu barcha tillarda uchramasa-da, biroq ayrim tillarning o‘ziga xos jihati o‘laroq namoyon bo‘ladi, masalan, ingliz tilidagi gallon so‘zi predmetlarning joylashgan o‘rniga ko‘ra qiymat bildiruvchi numerativ sanalsa, uning suv nomiga nisbatan ham umumiy holatda qo‘llanishi ushbu birliklarning ot turkumidagi atoqli ot vazifasini hosil qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, nomi zikr etib o‘tilgan ushbu tilda bu turdagi numerativlar ko‘plik holatida qo‘llanadi: *two glasses of water, three tablespoons of water* kabi misollarda hisob so‘zlar berilgan miqdorning birdan ortiqligini bildiradi[2].

Tanlangan predmetlarning miqdoriy o‘lchovini hisoblash uchun mo‘ljallangan hisob so‘zlar ba‘zan qisqartma shaklga ega bo‘lishi mumkin. Bu keltirilgan adabiyot turiga bog‘liq, masalan, ilmiy adabiyotlar - lug‘atlar, ilmiy asarlardan - ushbu holat yaqqol namoyon bo‘ladi: stakan leksik birligi bevosita ilmiy asarlarda takrorning oldini olish yoki sahifalash jarayonida joylashuvning muqobil holatini tashkillashtirish uchun qisqartma holatda, ya'ni "st" shaklida yoki "T" ifodasi yordamida foydalanilishi mumkin[3]. Nomi qayd etilgan hisob so‘zlar ma'nosi ayrim hollarda kontekstga ham aloqadorlik hosil qiladi, sababi, stakanlarning o‘lchami turlicha ekanligi sababli tanlangan kontekstda keltirilgan ma'lumotning aniqligi

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

oydinlashadi. Qo‘shimcha sifatida aytish mumkinki, ba'zan kulturologik omillar ham predmetlarning joylashgan o‘rniga ko‘ra qiymat ifodalovchi xususiyatini tasvirlashda muhim jihat sifatida xizmat qilishi mumkin. Chunonchi, ayrim millat vakillari orasida "bir stakan" o‘lchov birligi deyilganda kichikroq hajm nazarda tutilsa, ba'zi xalqlar orasida bu katta hajmga nisbatan qo‘llanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, til muloqotida predmetlarning joylashgan o‘rniga ko‘ra qiymat ifodalovchi numerativlarning ahamiyati katta. Ular o‘lchanayotgan miqdorlar hajmining aniq ifodalanishiga imkon beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Hat trick, n.". Oxford English Dictionary. Oxford University Press. Retrieved 26 December 2014.
2. "Shock, n.2". Oxford English Dictionary. Oxford University Press. Retrieved 26 December 2014.
3. "How Do You Say 2010?". NPR.org.
4. "What is a partitive numeral?".
5. Gary Blake and Robert W. Bly, The Elements of Technical Writing, pg. 22. New York: Macmillan Publishers, 1993. ISBN 0020130856
6. The Chambers English Dictionary [12th edition] p.1693.